



Classification of Religious Topics from Mahmudxo'ja Behbudi's "Oyna" Journal

Dilnoza KHOLMIRZAEVA¹

Khadichai Kubro madrasah for women

ARTICLE INFO

Article history:

Received August 2025

Received in revised

form 15 August 2025

Accepted 15 September 2025

Available online

05 October 2025

Keywords:

Mahmudkhoja Behbudi,

Oyna journal,

Jadidism,

enlightenment,

ethics,

Islam,

modernity.

ABSTRACT

This article analyzes the religious, moral, and educational articles published in the "Oyna" magazine by Mahmudkhoja Behbudi, one of the leading figures of the Jadid movement in the early 20th century. The study illuminates Behbudi's perspectives on the harmony between religious faith and modernity, his principles of interpreting Islam as a factor of progress, and the social significance of his ideas calling for public enlightenment. Additionally, the moral values, human education, the role of women, and youth spirituality issues advanced in the articles are examined from contemporary pedagogical and social viewpoints. The research findings reveal Behbudi's role and influence in shaping enlightenment ideas within Muslim society through the "Oyna" magazine.

2181-3701/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss5-pp163-174>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Mahmudxo'ja Behbudi's "Oyna" Journal and its Religious Topics

ANNOTATION

Keywords:

Mahmudxo'ja Behbudi,

"Oyna" journal,

Jadidism,

enlightenment,

ethics,

Islam,

modernity.

Mazkur maqolada XX asr boshlaridagi jadidchilik harakatining yetakchi nomoyondalaridan biri bo'lgan Mahmudxo'ja Behbudi's "Oyna" journalida chop etilgan diniy, axloqiy va ma'rifiy mazmundagi maqolalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda Behbudi's diniy e'tiqod va zamonaviylik o'rtasidagi uyg'unlik haqidagi qarashlari, islomni taraqqiyot omili sifatida talqin etish tamoyillari hamda xalqni ma'rifatga chaqiruvchi g'oyalarining ijtimoiy ahamiyati yoritiladi.

¹ Teacher, Khadichai Kubro madrasah for women
E-mail: guljahonjamolovna@gmail.com

Shuningdek, maqolalarda ilgari surilgan axloqiy qadriyatlar, inson tarbiyasi, ayol o'rne va yoshlar ma'naviyatiga doir masalalar zamonaviy pedagogik va ijtimoiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari Behbudiyning "Oyna" jurnali orqali musulmon jamiyatida ma'rifatparvarlik g'oyalarini shakllantirishdagi o'rni va ta'sirini ochib beradi.

Классификация религиозных тем в журнале «Ойна» Махмудходжи Бехбуди

Ключевые слова:

Махмудходжа Бехбуди,
журнал «Ойна»,
джадидизм,
просвещение,
этика,
ислам,
современность.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются религиозные, этические и образовательные статьи Махмудходжи Бехбуди, одного из ведущих деятелей джадидского движения начала XX века, опубликованные в его журнале «Ойна». В исследовании рассматриваются взгляды Бехбуди на гармонию веры и современности, его интерпретация ислама как движущей силы прогресса и призыв к просвещению и образованию мусульман. Также анализируются моральные ценности, воспитание человека, роль женщин и вопросы образования молодёжи, обсуждаемые в его трудах, с точки зрения современной педагогики и социальной практики. Результаты исследования подчёркивают значительный вклад Бехбуди в формирование реформаторских и просветительских идей в мусульманском обществе через журнал «Ойна».

Mahmudxo'ja Behbudi hazratlari noshir mutafakkir, yozuvchi, dramaturg bo'lish bilan birga diniy ilmlarni ham puxta egallagan olim edi. U zot hazratlari yoshlik vaqtlaridayoq Qur'oni karimni to'liq yod olib, qorilik maqomini olgan. Shu bilan bir qatorda, islom huquqshunosligiga oid bo'lgan "Muxtasar ul-viqoya" va "Hidoya" kitoblarini puxta o'rgangan olim ham edilar. Otalari Behbudxo'ja o'z davrining ilmi kishilaridan bo'lgan. Mahmudxo'ja dastlabki diniy ilmlarni otasi Behbudxo'ja va tog'asi Muhammad Siddiqdan oladi. Mahmudxo'ja Behbudi diniy ilmlar olimi bo'lganligini "Oyna" jurnaliga yozgan bir qator diniy mavzudagi maqolalaridan ham bilishimiz mumkin. Jurnaldagi diniy asarlarni islomshunoslikka oid yo'nalishlarga ko'ra quyidagicha tasniflashimiz mumkin:

1.Aqidaga oid maqolalar.

2.Fiqhga oid maqolalar.

3.Islom tarixiga doir maqolalar.

Bundan tashqari Mahmudxo'ja Behbudi asarlarida **Qur'oni karim, tafsir, hadis, usul-ul fiqhga** doir bir qancha maqolalarni uchratishimiz mumkin.

"Oyna" jurnalidagi aqidaviy maqolalarni tasnif qilishdan avval aqida so'ziga izoh berib o'tamiz. Aqida ilmi islom dinining asosini tashkil etadi. U to'g'ri bo'lmasa, qilingan ibodatlar Alloh dargohida ijobat bo'lmaydi. Insonning e'tiqodi dinidagi birinchi unsur hisoblanadi. E'tiqod arab tilidagi bir fe'lning o'zak so'zi hisoblanib, arab grammatikasida masdardir. "Aqd" so'zi arab tilida bog'lab qo'yish deganidir. Lug'at jihatidan tushunadigan

bo'lsak, bir narsani bog'lab qo'yish degani. Diniy iste'lohda esa iymonni bog'lab qo'yish deganidir. Tom ma'noda esa Alloh taologa ishonch tushuniladi.[1] E'tiqodda hech qanday ikkilanish bo'lishi mumkin emas. Aqida va e'tiqod so'zlari umumiy ma'noda sinonim sifatida qo'llanib kelinadi. Bu borada So'fi Allohyor bobomizning aqida bilmagan shaytonga eldur, agar ming yil ibodat deb qilsa ham yeldur, degan gaplaridan shuni tushunishimiz mumkinki, musulmon kishining dindagi tushunchalari Alloh taolo buyurganiga muvofiq bo'lmas ekan, u ibodatlar qabul bo'lmasligi tushuniladi. Behbudiy hazratlari "Oyna" jurnaliga yozgan bir necha maqolalarida aynan aqidaviy masalalarni yoritib beradilar. Jurnalda aqidaga oid diniy maqolalarning aksar qismini Behbudiyning o'zi yozgan. Buning boisi, shar'iy ilmlarni yaxshi bilganidan bo'lsa kerak. Masalan "Oyna" jurnalining 1914-yil,12-sonidagi **"Favqulodda takfir"**[2] nomli maqolasini oladigan bo'lsak, bolalarini jadid maktablarida o'qitayotganlar kofir bo'lurlar, deganlar shariatga xilof ish tutayotganlardir, deb qoralanadi. Eng mo'tabar arboblardan ham farzandlarini jadid maktablarida o'qitayotganlari ta'kidlanadi. Jurnalda shunday keladi: "Mirzo Ulug'bek hazratlari jome'inda muazzin tarafidan usuli jadid maktabinda va ham ruscha o'qumoqni yomonligi haqida jum'adagi musulmonlarg'a nutq qilingani va har kim usuli jadida maktabiga bola bersa, "o'zi kofir xotuni taloq" bo'lishini forsiy til ila uzun va hayajonlik nutq ila xaloyiqqa bildurub, hamda larni "kofir va o'rus" hamda "kofir va o'ris qilguvchi" deb e'lon qilindi"[3]. O'sha davrning sodda yoinki ilmsiz kishilari yangicha uslub maktablarida farzandini o'qitayotgan ota-onalarini kofirlikda ayblab, dinsizga chiqarganlar. Bu ham yetmaganday xotini taloq deya asossiz hukm chiqardilar. Islomda bir kishini kofirga chiqarish unga asossiz do'zaxda qolasan, deyishga teng gapdir[4]. Qolaversa, jamiyat kishilari orasida uning o'rnini o'z bilganicha belgilab berish demakdir. Maqola davomida: "chunonchi, muazzin derki, "Bu so'zlarni o'zumdan aytmayman, ulamo qavli va buyrug'i ila derman. Maqzuf (tashlandiq) va maqduh(la'natlangan)lar ushbu to'g'rida shirkatlar va qonun mahkamalarig'a va yer yuzindagi musulmonlarni vijdoniga ruju' etarlar. Shunida favran yozayinki, kofir degan odamlari azaliy va abadiy musulmondur. Unlar kufrni abadan qabul etmaydurlar. Turkistonda yuz ming otalar borki, bolalari usuli jadid maktabig'a o'quydur".[5] Maqolaning birinchi qismi shu yerda yakunlanadi. Maqolada usuli jadid maktablariga farzandlarini o'qishga bergan ota-onalarni kofirga chiqargan muazzin, bu holatni o'zining xohishi bilan emas, balki ulamoning gapi bilan aytarman, demoqda. O'sha davrda dunyoviy ilmlarni daxriylik, kofirlik, dinga xilof deya ta'qiq qilgan mahalliy mullalar ham bo'lgan. Behbudiy o'sha davr diniy ahvolini isloh qilish, jamiyatdagi yangi o'zgarishlarni dinga moslashtirish kabi dolzarb muammolarni olib chiqqan edi. Ushbu maqolaning mantiqiy davomi Behbudiyning "Bizni hollar va ishlar" mavzusida davom etadi. Maqolaning davomida shunday keladi. Muazzin qilgan ishini hech qanday ulamolar ruxsati bilan emas, balki "Anjuman arvoh" degan kitobga tayangan holda usuli jadid maktabiga borgan bolalarning ota-onalarini takfirda ayblaganini aytadi[6]. Tillaqori va Mirzo Ulug'bek mudarrislari hukumat tarafidan so'roq qilinganda biz bunday fatvo bermadik deya ta'kidlaydilar. Behbudiy maqola so'ngida, "Ox, Biz qanday keyin qolganmiz. Xalqi olam usuli jadid va ilmi zamoniy ila osmonlarg'a uchar, biz hanuz bir-birimizni takfir va tal'in ila vaqt o'tkararmiz".[7], deya ta'kidlaydi. Behbudiy ushbu maqolani oh va hasrat bilan tamomlar ekan, yuragidagi istiroblarini yashira olmadi. U umrini Turkiston musulmonlarining kelajagi va ilm – ma'rifat egallashidagi qiyinchiliklarga sarfladi. Behbudiy hech bir badalsiz o'zini xalq kelajagi va ravnaqi uchun baxshida qildi. "Bizni hollar va ishlar" deb nomlangan

maqolasida esa G'arbda insonlar fazoga uchayotgan bir vaqtda, Turkiston xalqlari ilm-u irfondan ortda qolib, o'zlarining qobiqlariga o'ralib, bir-birlarini takfirda ayblash bilan vaqt o'tkazayotganlari achinarli hol edi, albatta. Zero, ilmni diniy-dunyoviyga emas, foydali foydasizga ajratish mumkin bo'lgan bir vaqtda, zamonaviy ilmlardan yuz o'g'irish jamiyatni isloh etmaydi, albatta. Bu xususda payg'ambarimiz sallollohu alayhi vasallamning "Utlubul ilma va lav fis- Sin", ya'ni "ilmni agar u Chinda bo'lsa ham, talab qil", degan hadislariga amal qilmog'imiz darkor. Yuqoridagi maqolaning nomiga to'xtaladigan bo'lsak, **"Favqulotta takfir"** deb nomlangan. Takfir so'ziga to'xtaladigan bo'lsak, "Takfir" tushunchasi "Birovni kofirga chiqarish"[8], "Kofir[9] deb hisoblash" ma'nolarini anglatadi. Shariatimizda biror hujjat bo'lmasdan turib, "kofir" deb hukm qilish o'ta xatarli bo'lib, aslo mumkin emas[10]. Bu haqda Alloh taolo shunday degan : "Sizga salom bergan kimsaga, mo'min emassan demanglar"(Niso surasi 94-oyat).[12] Demak, Alloh taolo bu oyati karimada shoshma-shosharlik bilan birovning mo'min emasligi haqida hukm chiqarib, ish ko'rishdan qaytarmoqda.

Shariatda musulmon insonni uning musulmon ekaniga qarshi dalil topilmagunicha musulmon deb hukm qilinadi. Mo'min kishi imon asoslarini ochiq inkor etishi yoki kufr kalimasini bilib turib, o'zi xohlab talaffuz qilishi, islomdagi qat'iy farz qilingan amallardan birini inkor qilish yoki din shiorlaridan birini mashara qilish bilan dindand chiqadi. Hozirgi kunimizda ham "Xavorij"[13] firqasining g'oyaviy izdoshlari chiqib turibdi. Zamonamiz xavorijlari ham qadimgi maslakdoshlaridan "o'rnak olib", fitna-fasod qilmoqdalar. Bularning ham o'tmishdagi maslakdoshlari kabi boshqalarni ayblashdan boshqa ishlari yo'q. Musulmonlarni kofirga chiqaruvchilarning asosiy xatolari – dinni puxta bilmaslik, oyat-hadislarni yengil-yelpi tushunish, mo'tabar, mujtahid ulamolar, mufasssirlar va hadislariga sharh yozgan buyuk olimlarning so'zlarini bilmasliklari yoki bilsalar ham, e'tiborga olmasliklaridir.[14] O'sha davr mahalliy musulmonlari islom diniga oid kitoblarni to'la qonli zahirini tushunmay, shar'iy fatvoni ilmsizlarcha chiqarar edilar. Asl dindand bo'lmagan narsani dindand deb da'vo qilish ular uchun odatiy hol edi. Lekin Allohning dini qiyomatgacha muhofaza qilingandir. Alloh taolo o'zining dinini xohlagan bir bandasi orqali uni tili va amali bilan yuzaga chiqarib qo'yadi. Behbudiy shunday bir vaziyatlarda dinning aslini o'zining maqolalari va bo'layotgan vaziyatlarga yondashuvi bilan yuzaga chiqardi. Hatto jadid-ma'rifatparvarlar madrasalarda joriy bo'lib turgan 20 yillik ilmni 12 yilga qisqartirdilar. Maqolaga qaytadigan bo'lsak, ushbu maqolaga javob idoradan "Oyna" jurnaliga xat kelgan va bu xat "Oyna" jurnalining 1914-yil, 20 sonida **"Idoradan javob"** mavzusi ostida chop etilgan maqola mazmuni quyidagicha: "Samarqandning Mirzo Ulug'bek madrasasinda taraqqiy muqobilinda nutq qilgan muazzing'a xitob va javob muqobilinda forsiy va turkiy maqola yozgan muxtaram ahli vatang'a ojizona bayon qilinadirkki, muazzin aytgan so'zig'a hukumat ham ustoz huzurinda munkir bo'lib, hatto: "Tilim kesilsunki, man hech nima deganim yo'q", - deb munkir bo'ldi. Bas, munday kishi so'zig'a ahamiyat bermak kerak yo'q. Va agarda ani so'zi masjid va jome'da so'ylanmasa edi, javob yozmas eduk. Unday kishilarning so'zi beqadrdur. Alhamdulillah, xalqimiz kufr ila islomni, taraqqiy ila tadanniyni, ros ila yolg'onni tamiz etadurlar. Qiymatlik matbuot sahifalarini shunday o'z so'zig'a o'zi e'tibor qilmaydurg'onlar ila benaf yozishmoqni nafsiz gumon qilunur. Ushbu bobda maqola yozganlardan avf tilarmiz".[14] "Oyna". 1914-yil. 8-mart.№20.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, musulmonni kofirga chiqarishga hech kimning haqqi yo'q. Payg'ambarimiz sollalllohu alayhi vasallam, sahobai kiromlar,

tobeinlar va ularga ergashgan ulamolarimiz gunohkor musulmonlarni murtad yoki kofirga chiqarmaganlar. Shunday ekan, musulmon shaxs o'zini sunnatga hamda salafi solihlar yo'lga ergashishini da'vo qilgan ekan, ularning yo'lini mahkam tutishi lozimdir.

Yana shunday takfir mavzusidagi maqolalardan biri **“Kiyim va tashabaha”** mavzusi ostidagi maqoladir. Ushbu maqola mazmuniga to'xtaladigan bo'lsak, o'sha davrda chor Rossiyasi hukumati Turkiston yerlarida boshqaruvni qo'lga olgan vaqtlar edi. Ko'plab musulmonlar kiyinish jihatdan ruslar kiyadigan ayrim kiyimlarni kiyganliklari uchun kofirlikda ayblanganlar. Behbudiy hazratlari o'zlarining maqolalarida agar inson kiygan kiyimi uchun ham kofir bo'lib ketaversa, yer yuzida musulmonlar qolmaydi, degan ma'nodagi jummalarni yozadilar. Behbudiy hazratlari o'sha vaqtda askarlikka borayotgan yigitlar rus askarlari kiyimini kiyishi, boshi sovqotgan odam shapka yoinki shlyapa, boshi isib ketgan odam esa bosh kiyimsiz o'tirishi tabiiy hol ekanligini tushuntirib o'tadilar. Bu holatda kiyingan kishilarni kofirga chiqarayotganlarning daliliga kelsak, **“Man tashabbaha biqovmin fahuva minhum”**[15] ushbu hadis sunani Abu Dovud va Ahmad rivoyat qilgan. Hadisning ma'nosi “Kim bir qavmga o'xshashga intilsa, u o'shalardandir. Hazrat Behbudiy bunga javoban shunday deydilar: “Holbuki bu hadis ba'zi ulug' olimlarning so'zig'a qaraganda, zaif hadislardandir. Mavzu'at ul-kubro lil allamati ash-Shavkoni rahmatullohi taolo” har holda ba'zi zaif bo'lmagan taqdirda ham bularning maqsudig'a dalil bo'lmaydur. **Maa mo fiyh shuning ila istedlol etarlar.** Holbuki bu hadisning butun ma'nosi boshqadur. Bunday tashabbuhdan murod o'zga dinda bo'lgan xalqning dinlari va axloqi diniyalarini ulug'lab, ani yaxshi deb o'xshamakni tilamakdur. Yo'q esa ahodisda sobitdurki, rosulimiz sollollohu alayhi vasallam rumlar jubbasini, kisroi taylosonlarini kiyibdurlar (“Miroqot ul-mafotih”, jildi avval, sahifa 341 va soir) va ashobil kiromg'a ham shunday kiyimlar kiyganlari uchun hech narsa aytmabdurlar. Va “Sahihi Muslim”da Rasululloh sollollohu alayhi vasallam hind majusiylarining boshlarig'a kiyadurg'on ikki quloqli narsalarini kiygan” deb naql etilmushdir. Va mezon kubro kitobida ham Imom Molikning majus podshoh hadya etib bergan “quloh”ni kiyganlari zikr etib berilgandir. Demakki, “man tashabbaha”dan murod “tashabbuh Fil-libas val hay'at” emasdur. Yo'qsa, payg'ambarimiz va burung'i dindoshlarimizning shunday bo'lmoqlari lozim bo'latur”. Ushbu maqolada Behbudiy hazratlari hadis ilmini yaxshi bilganlari sabab ushbu hadisni sharhi nima haqida ketayotganini tushuntirib yozganlar. Bir qavmga o'xshash uni kiyimida emas balki, axloqi va diniga taqlid qilish bilan bo'ladi demoqdalar. Shu o'rinda Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf hazratlarining “hadis va hayot” 16-17-juz “Taom, sharob, libos” qismidan iqtibos keltiramiz: “Mahrama roziyallohu anhu o'g'li Misvarga: “Ey o'g'ilginam menga nabi sollallohu alayhi vasallamning huzurlariga yaktak choponlar kelganini xabari yetdi. U zot ularni taqsimlayotgan emishlar. Yur, huzurlariga boraylik”, - dedi”. [16]

Biz “yaktak choponlar” deb tarjima qilgan kiyim arab tilida “aqibbatun”[17] deyiladi. U yengil, oldi ochiq chopondir. Arablarning o'zida bu xildagi chopon bo'lmagan. U ularga ajamlardan keltirilgan. [18] Bu hadisda ham payg'ambarimiz Muhammad Mustafo sollollohu alayhi vasallam ajamlarning kiyimini kiyganliklarini dalil qilib keltirishimiz mumkin. Hozirgi kunimizda ham ko'plab musulmonlar ajam o'lkalarida tikilgan kiyimlarni kiyishadi. Bu ishlari bilan ularga dindan chiqdi degan hukmni berish xato hisoblanadi. Demak, xulosa qilsak, bir insonni kiyimiga qarab unga baho berish hech bir zamonda o'zini oqlaydigan ish emas. Behbudiy hazratlari davrida ham uyiga stol, stul yoki tunuka tom qilgan kishini takfirda ayblash jamiyat muammolaridan edi. Qolaversa, na din ilmini va

dunyo ilmini puxta egallamagan holda bir inson ustidan hukm qilish o'ta ketgan johillik edi. Behbudiy hazratlari mana shunday illatlarga ko'z yumib jimgina qarab turmadilar, o'zlari bilgan shariat ilmi bilan darhol bu masalaga nuqta qo'ydilar.

"Oyna" jurnalini tadqiq etish davomida aqidaga doir yana ko'plab maqolalarni Behbudiy qalamiga mansub "Turkiston viloyatining gazetida" ham tadqiq etdik. Ushbu maqola ham ayni aqidaviy masala bo'lgani uchun garchi jurnalda keltirilmagan bo'lsa-da, biroq Behbudiy qalamiga mansub bo'lgani uchun hozir keltirmog'imizning o'rni deb bildik. "An-nazar ush-shar'iy "Duradgorlar risolasi"nda maktubi fosid aqida xususida" mavzusidagi maqola bo'lib, ushbu maqoladan iqtibos keltiramiz: "Sanai xoliyag'a manshur 23- nomerli jaridag'a "duradgorlar risolasi"ni mazmunig'a aytdukki, aning mavvod e'tiqodiyasi bu ekan (sohibi takbir hazrat Odam[19], Nuh[20], Ibrohim[21] Payg'ambarimiz Muhammad Mustafo sallollohu alayhi vasallamning[22] o'rinlarig'a o'turg'ay), yana agar kosibning muddaosi bo'lsa ustoz oldig'a kelgay, o'zin takbirga yetkurg'ay to bu to'rt payg'ambar alayhissalomning savoblarin topgay. Takbir etguvchi gunohdin pok bo'lg'ay) va har kishi risolani bitgan odamni rozi qilib, vaqtini xush qilmasa, azob va do'zoxga giriftor bo'lur va agar rozi aylasa, Xudoyi azz ava jalla sakkiz behishtning eshigin ochar, xohlasa, har qaysidin kirgay, ul banda o'z ixtiyori birla kirgay deb aytgan, asli, muallifi gumrohni va yozgan kotibi va badgashtnodonni ahvolig'a taassuf qilib mazkur iftiro va g'ayri aqidai shar'iyya va beusul so'zlarg'a e'tiqod qilib yurgan kosiblar ahvolig'a mulohaza qilib, dunyotalab mufsidlarning qilgan makr va tazvirlarig'a shar'i- sharif ila mutakallim bo'lduk. Avval ul-luzum budurki, ul risolag'a savob deb e'tiqod qilguvchi kosiblar hamoyil qilib yurgan risolalarini ulamo, ya'ni ulug' mudarris va muftilarg'a topshirub, tashih qildirib olsunlar, ikkinchi bul nav xilofi aqoidi shar'iya va masoili diniyya e'tiqodlarini tark qilib, tavba va istig'for qilsinlar, uchinchi beilm qo'ynig'a kitob va nasabnoma solib ta'malik qilib ta'malik qilib: pirman, pirzodaman, eshonman va payg'ambarlar maqomida o'lturadur deb risolag'a yaqin qilgan sohibi takbir man bo'ludurman deb da'vo qiladurg'on yolg'onchi, gumroh, botil, mufsid va johillarning iftiro va hiylasig'a tobe' va mo'taqid bo'lmasinlar, azbaski, dalil bordurki, ummat, ulamo va avliyo alayhimus salomning o'runlarig'a o'lturmoqqa martaba hosil qilmas: shar'an va aqlan mumkin yo'qdur, balki har bir payg'ambar alayhimus salomning maqomlarini bir-biridan farq va uluvviyati bordir. Ushbu maqola Behbudiy hazratlari kosib, duradgor, eshon, pir, yoinki pirzodalarni e'tiqodan buzuq aqida bilan o'zlarini payg'ambar alayhimussalomlarga tenglashtirayotganlari buzuq e'tiqod ekanligini ta'kidlab aytmoqdaki, yuqorida zikr qilingan payg'ambar alayhimussalomlarning bir-biridan martabalarida farq va uluvviyatlari bordir. Shunday ekan, duradgorlarning nasabini Nuh alayhissalomga, eshonlar-u pirlarni payg'ambarimiz Muhammad mustafo sollollohu alayhi vasallamga intiho qilish gunoh va botil amal ekanligini buni qasddan yozgan eshon va pirlar bu qilgan amallari uchun Alloh taoloning huzurida shayton maqomiga ham yetolmay unga hamsoya bo'lmoqqa haqli bo'lganlari kitoblarimizda dalili sobitdir[23]. Maqola davomida Behbudiy hazratlari har bir inson qilgan amali uchun o'zi javob berishi garchi u payg'ambarning farzandi bo'lsa ham jannatga kirishiga kafolat yo'qligini yozganlar. Va shu o'rinda Nuh alayhissalomning o'g'illari Kanon be'imon bo'lganligi sababidan Alloh taolo Qur'oni karimda "laysa min ahlik" ya'ni "seni ahlingdan emas"[24] deb aytadi. Har bir mo'min musulmon ilm hosil qilib, aqidasini to'g'ri qilsa, jannatga yetishi, aks holda, payg'ambarning farzandi bo'lsa ham be'imon inson jannatning hidini ham hidlamasligi aytiladi. Behbudiy hazratlari "Sadoi Turkiston" jaridasida yozilgan kosiblar va

duradgorlarning nasabini payg'ambarlarga bog'lash mazmunidagi ushbu maqolani chetda qoldirmay o'z fikrlarini bayon etdilar. Chindan ham har bir musulmon bunday bunday johilona qarashlar va fikrlarga befarq qarab o'tib ketmasligi zarur. Hazrat Behbudiy ham shunday shaxslardan edilar. Jamiyatda sodir bo'layotgan har bir holatdan doim xabardor, va har bir masalaga agar u noto'g'ri bo'lsa, ko'z yumib keta olmas edilar. Bu ham u zotning naqadar diniy ilmlarni bilganliklari va hadisi sharifda kelgan "Kuchli mo'min kuchsiz mo'mindan yaxshiroqdir" degan gaplariga mosligini ko'rishimiz mumkin.

"Oyna" jurnalida aqidaga doir maqolalarni o'z bilganimizcha tahlil qildik. Shu bilan bir qatorda, fiqhiy masalalarga oid maqolalar ham bir qancha. Ular quyidagi mavzular ostida berilgan. Hozir ulardan bir nechtasini keltirib, tahlil qilishga kirishamiz

"Tahsil va safar zamon va taom" ushbu maqolada farzandiga rus tilini o'rgatmoqchi bo'lgan ota-onalar farzandlarini 8-9 oy rus xonadoniga bersa va bu xonadonda bolaning ovqat yeyishi mumkin yoki mumkin emasligi masalasiga berilgan fatvoni ko'rib chiqamiz. Hazrat Behbudiy ushbu maqolani o'sha davr ijtimoiy hayotida bo'lib turgan diniy tortishuvlarga yakun yasash maqsadidan kelib chiqib yozgan. U vaqtda jamiyatdagi yosh bolalarni til o'rganib, Turkiston idoralari kursilarini ruslar emas, Turkiston yoshlari egallashlari jadidlarning orzusi edi. Idora egalari ruslar emas balki, Turkiston farzandlari bo'lishini xohlagan Behbudiy oyat asosida javob berganini ko'rishimiz mumkin. Dalil sifatida jurnalidagi maqoladan keltiramiz: "Endi rus taomining masalasi shu hadis ila va ham ushbu oyati sharifa ila hal bo'lur. Xudo taolo Qur'oni karimda der: "Alyavma uhilla lakum ut-toyyibatu, va toamullazini u'tul kitaba hillun lakum" alayatu, ya'ni[25] "Bu kun halol qilindi siz musulmonlar uchun toza nimarsalarni va ahli kitobning taomi sizlar uchun haloldur". Ana Xudo va rasulining farmoyishi va marhamati shudur. Oyatdan, Tavrot va injilni o'zlari uchun kitob bilguvchi, nosoro va yahudiy taomining musulmonlarga yemoq durustligi ham pok, ham hallolligi chiqar.

Agarda Xudo va Payg'ambar halol qilgan nimarsani yemayturgan bo'lsak, va halolni yemaslik ila taqvolik va so'filik sotaturgan bo'lsak, ul albatta, shariatdan boshqa, vijdoniy va yoinki xohishi nafsoniy bir ishdur. Albatta, shubha qilaturg'onlar borki, nasorolardan bir qismi kres-salb osar, ibodatxonalariga suvrat qo'yar, "Aknum suls"ga e'tiqod etar va muning ila ahli kitoblik chiqar. Farazan bu shubhani qabul qilganda va ba'zi nosorolar bo'lgan suratda ham yuqoridagi oyat ila taomlarini "Bismillah deb yemoqimiz shar'an mumkindir. Holbuki ba'zi nosorolarni "suls salosa so'zlari" ko'pdab beri bo'lub, Qur'oni karimni rad vahdoniyati Xudoni isbot etsa ham alarni ul so'zlarini Qur'onda zikr etib turib, yana "Ya ahlal kitab", deb qur'onda zikr va nido etar. Ya'ni kitobiyligidan chiqormaydur. Yahudiylarga hokazo"[26].

Shu o'rinda Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf hazratlarining "Tafsiri Hilol" Qur'oni karim ma'nolaridan tarjima kitoblaridan misol keltirishni o'rinli deb topdik. Behbudiy hazratlari tafsir ilmini ham chuqur bilganliklarini guvohi bo'ldik. Behbudiy hazratlari keltirgan taom masalasidagi dalil Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf keltirgan dalillari bilan deyarli bir xil. Moida surasining ma'nolari tarjimasida shunday keladi: "Bugungi kunda sizlarga pok narsalar halol qilindi. Kitob berilganlarning taomi siz uchun haloldir. Sizning taomingiz ular uchun haloldir". Yuqorida zikr qilib o'tilgan oliymaqom ma'no yana bir bor ta'kidlanmoqda. Keyin esa halol-harom masalasida g'ayridin millatlar bilan ham o'ziga xos muammolar, kengchiliklar borligi eslatilib, bu haqda ba'zi hukmlar bayon qilinmoqda: "Kitob berilganlarning taomi siz uchun haloldir. Sizning taomingiz ular uchun haloldir".[27]

Islom musulmonlarga nomusulmonlar bilan birga tinch—omon yashashga ruxsat bergan. Lekin shuning o'zi yetarli emas. Modomiki, musulmonlar jamiyatda boshqa din vakillari bilan birgalikda yashar ekanlar, tabiiyki, o'rtada turli shakllardagi yaqinliklar paydo bo'lishi, o'zaro bordi-keldi qilishlari mumkin. Shundan kelib chiqib musulmonlarga ahli kitoblarning so'yishlari halol qilingan. Bu oyatda taom so'zi qo'llangan, ammo undan ahli kitoblarning barcha taomlari, jumladan, cho'chqa yoki boshqa harom hayvonlarning go'shti, aroqqa o'xshash ichimliklari ham halol ekan-da, deb tushunilmasligi kerak. Bu narsalarning haromligi o'z- o'zidan hammaga ma'lum. Asli o'zi halol bo'lgan boshqa narsalar haqida ham avval aytib o'tildi. Demak, bu yerda gap go'shti asli halol bo'lgan hayvonlar ahli kitoblarning dinlari asosida so'yilgan bo'lsa, halol bo'lishligi haqida ketmoqda.

Ba'zi kishilar: "Sizlarning taomingiz ular uchun haloldir", deyishlik nima uchun kerak bo'ldi ekan? Ular Qur'on hukmiga amal qilishmaydi-ku? Halol -haromning ham farqiga borishmaydi?, deyishlari mumkin. Ulamolarimiz bunga javoban: "Mazkur xitob mo'minlarga qaratilgan, sizlar ham ularga o'z taomingizdan bersangiz bo'laveradi, deganidir", - deydilar.[28]

Boshqa din vakillariga nisbatan islomdagi bag'rikenglik ushbu hukm bilan chegaralanib qolmaydi. Behbudiy hazratlarida bag'rikenglik tushunchasi ham yuqori bo'lganligini ushbu ahli kitoblarga nisbatan xolis yondashganlaridan ham bilishimiz mumkin. O'sha davr nuqtai nazaridan olib qaralsa ruslar Turkiston o'lkasini bosib olgan davr edi. Tabiiyki bunday vaziyatda hukumat ishlari uchun ko'plab ruslar O'zbekistonga ko'chib kelganlar, o'zbeklar bilan qo'shnichilik qilganlar va birga yashaganlar. Ijtimoiy turmushdagi barcha marosimlarda o'zaro aloqadorlik bo'lgan albatta. Bir – birlarini to'y va azalarida qatnashganlar. Maktablarda o'zbeklar va ruslar birga ta'lim olganlar va bir – birlari bilan birodarlik qilib uylariga tashrif buyurib taomlaridan tanavvul qilganlar. Shunday vaziyatlarni Behbudiy hazratlari inobatga olib oyatlardan hukm qilganlar. Shu vaziyatlarni hisobga olgan holda ushbu oyatga binoan ahli kitoblarning taomini yeyishlik halol bo'lishi borasida fatvo bergan deb tahmin qildik.

Keyingi maqolamiz isrof masalasida bo'lib, "Oh banklar bizni barbod etdi!" deb nomlanadi. Maqola mazmuniga keladigan bo'lsak, 1913-1914-yillarda Turkistonda bank atalmish yangilik kirib keldi va uning nomi bank deb ataldi. O'sha kezlarda ko'plab musulmonlar banklarga pullarini qo'yishar va bankdan pul olib to'y va aza uchun sarf qilib, isrof qilishar edi. Behbudiyning maqolalari aynan bankdan pul olish yoki bankka pul qo'yish islom shariatida joiz yoki joiz emasligi masalaida emas, balki, bankdan pul olib, uni isrof qilib qarzga botish masalasida. Shu o'rinda aytishimiz mumkinki, Behbudiy hazratlari bankka ruxsat berganmi yo'q? U kishi boshqa taraflama yondashganlar, ya'ni o'sha pullarni olib to'ylarga sarflayotgan o'zbeklarni qattiq tanqid ostiga olganlar. Maqoladan parcha keltiramiz: "Bonk sababi ila yahudiy, armani va boshqalar davlatluk bo'lur. Biz bo'lsa, bilaks davlatimizdan, mulku obro'yimizdan ayrilarmiz. Chunonchi, qo'lda bor nimarsamizni to'y-u azag'a, behuda odatlarg'a sarf etarmiz. Qarz ila imorat, to'y qilib fisq – u boylik qilarmiz, isrof qilarmiz. Oxiri "xusrud- dunyo va oxira" bo'lurmiz". Bu sabab ila faqirlik darajasida tushub, so'ngra bonkdan dodxoxlik qilarmiz"[29]. Ushbu maqolada bankdan pul olib olgan pullarini noo'rin ishlatib isrof qiladiganlarga xitob bor. Behbudiy hazratlari bankdan olingan pullarni vaqtida qaytarmay qarzga botgan zamondoshlariga bu ishlari mutlaqo joiz emasligi oxiratda ham isrof qilib gunohga botib, javob berishlari haqida yozganlar. Shunga o'xshash maqolalardan yana keltirishimiz mumkin. "Mayda qarz

mulki kredit”, [30] “Andijonda yangi bank” [31] sarlavhasi ostidagi maqolalar ham shular jumlasidandir. Bundan tashqari yana koʻplab fiqhiy mavzudagi maqolalarni koʻrishimiz mumkin.

“Oyna” jurnalidagi keyingi turkum maqola islom tarixi mavzusidagi maqolalardir. Mahmudxoʻja Behbudiy diniy ilmlardan tafsir, hadis, aqoid, fiqh, usul ilmlarini yaxshi bilgan balki, islom tarixiga oid bilimlarni ham puxta egallagan olim edi. U zotning “oina” jurnalini tatqiq etish davomida ushbu ilmlarni puxta egallaganlarini ham koʻrishimiz mumkin. Jurnalning 1915-yil, 30-yanvar da chop etilgan sonida “Qur’oni karim tarixiga bir nazar” maqolasini isbot sifatida keltirishimiz mumkin. Ushbu maqolada Qur’oni karim tarixiga bagʻishlangan boʻlib, to kitob holiga kelgunigacha boʻlgan voqealar yoritib berilgan. Soʻzimiz isboti sifatida ushbu maqoladan parcha keltiramiz. “Hazratimiz Makka yaqinidagi Xiro togʻiga chiqqon kunlarcha vajd va istigʻroq holatida edilarki, paygʻambarimizga malak tajalli etib: | “Iqro” yaʼni oʻqu” deb xitob etdi. Bani zi shonimiz hazratlari “Ma ana biqorin”, “Men oʻqiy olmayman” dedilar. Bu xitob va daʼfa 3 karra davom etdi. Va mundane soʻngra uch sanagʻacha vahiy [32] kelmadiki, muni zamoni fitrat vahiy derlar”. [33] Yuqorida Behbudiy hazratlari ilk vahiyning koʻrinishi va ilk nozil boʻlgan oyatlar haqida yozmoqdalar. Shayh Muhammad Sodik Muhammad yusuf hazratlarining “Hadis va hayot” 19-juz kitoblarida ham vahiyning ilk nozil boʻlishi va qaysi sura nozil boʻlgani haqida keltiriladi. Voqealar deyarli bir xil. Ana endi maqolaning davomini tahlil qilamiz. “U zamonda bu kungi qogʻoz yoʻq edi. Hatto Ubay ibn Kaʼb, Umar, Usmon, Ali, Zayd, Ibn Masʼud, Solim roziyallohu anhum hazaroti oʻz-oʻzlaridan Qur’oni karimni jam etib edilar. Bu barchalarining jamʼida ixtilof yoʻq edi. Zamoni halofat [34] hazrat Abu Bakr bir necha mahorabalar boʻlub, faqat “Yamoma” [35] mahorabasinda Qur’onni hifz bilaturgon sahobalardan bir necha yuz kishi shaxid boʻlgan uchun hazrat Umar ul-Foruqni mashvarat berishlari ilan hazrat Abu Bakr Qur’oni karimni bilaturgʻon koʻp kishilardan, yana jam boʻlishi uchun vahiy kotiblaridan, zayd bin roziyallohu anhuni zeri sadoratlarinda (Ubay ibn Kaʼb, Ali, Abdulloh bin Abbos, Abdulloh bin Umar, Abdulloh bin Zubayr, Abdulloh bin Masʼud, Abdulloh bin Soib, Xolid bin Valid kabi ittifoqlari mashhur boʻlgan huffoz qorilar Hazrat Umarni xonalarinda birinchi daʼfa jam boʻlub, soʻngra Madina masjidida jam boʻlur edilar”. [36] Bu oʻrinda Behbudiy Qur’oni karimni jam boʻlishi haqida aytayabdilar. Ushbu maqolada Qur’oni karimni nozil boʻlishidan to kitob holiga kelguniga qadar sodir boʻlgan voqealar bayon qilingan. Behbudiy hazratlari islom tarixiga, siyratga oid kitoblarni yaxshi bilganliklarini shu oʻrindagi maqoladan bilishimiz mumkin. Bunga oʻxshash islom tarixiga oid maqolalardan yana biri “Avvalgi musulmonlardagi madaniyat” nomi ostidagi maqoladir. Ushbu maqolada qadimgi Andalusiya [37] va u yerni musulmonlar isteʼlo qilib hukmronlik qilganliklari, oʻsha yerda islom dinini keng yoyganliklari toʻgʻrisidagi voqealar yoritib berilgan. Maqoladan misol keltiramiz: “Va moʻjizakaron bir suratda hozirgi “Ispaniya va Portugaliyani va Fransiyadan bir qismini istilo etdilar. 985 hijriyasigacha anda qolib, tom 893 sana saltanat surdilar.

Katta shaharlar, jannat misol bogʻchalar, yuz ming jildlik kata kitobxonalar, dorululumlar, rofi-ul martaba qasr va koshonalar barpo etib, Andalusni jannatdan namuna etdilar. Oqibat oralarinda, jaholat va sahofat yer tutdi, bir-birlarigʻa dushman boʻldilar. Ilm va ulamo oʻrnigʻa qiz va kanizlar, cholgʻu va oʻyunchilar ila suhbat etib, vaqt kechurdilar, ulamo amri maʼruf erigʻa sukut va nafi shaxsiyni ixtiyor etdilar, digar tarafdin, faranglar islomlarini ul zamonga ilm va fanini oʻqub, aning vositasi ilan oʻzlarini musulmonlarni (ng)

tobeligidan qutqardilar va hukumatni zabt etdilar, oxir barcha musulmonlarini nosoro bo'lmoqg'a va mamlakatdan chiqmoqg'a jabr etdilar. Yahudiylarg'a ham bu hukm joriy edi.

Oqibat, dinini vatanidan yaxshi ko'rgan muslim va yahudiylar, chor- najor u go'zal Andalusdan chiqdilar, bul alarni zamonig'a muvofiq turmag'onlarning va mag'rur bo'lub, ilm va fan o'rnig'a safohat va zavqparast va ixtilofga mayl etgonlarining jazosi edi"[38]. Ushbu maqoladan xulosa qiladigan bo'lsak, hozirgi Ispaniya va Portugaliya davlatlari qadimda Andalusiya deb atalgani hamda u yerda Musulmonlar yashab istiqomat qilganlari hamda islom dinini yoyganlari haqida bilishimiz mumkin. Hozirgi kunimizdagi islom tarixiga doir kitoblarda ham shunday ma'lumotlar keladi. Masalan, shayh Muhammad Sodik Muhammad Yusuf hazratlarining "Islom tarixi" kitoblarida ham shunday ma'lumotlar keltirilgan. Bundan ayta olamizki, hazrat Behbudiy islom tarixini yaxshi bilganlar. Islom tarixiga oid keyingi maqolamiz "Milliy tarix haqida" [39]deb nomlanadi. Ushbu maqolada hazrat Behbudiy Turkistonga islom dini kirishidan avvalgi holi va islom kirgandan keying holati haqida xabar berganlar. Bu davrlar quyidagi zamonlarni o'z ichiga oladi.

1.Dini islomga kirishdan avval Turkistonliklar qaysi dinda ekanligi.

2. Turkistonliklarning johiliyat davridan qolgan e'tiqod, bid'atlari[40] hozir ham bor yoki yo'qligi.

3.Islomiyatdan avval Turkistonliklar qaysi tilda so'zlashar edilar.

Xulosa qilsak, Behbudiy hazratlari o'z zamonasining yetuk jonkuyar va fidokor xalq g'amida yuradigan insonlaridan edi. U kishining nomlari qilgan ishlari qadar saqlanib qoladi. Jasurlik va mardlik u zotga xos xususiyatlardan ekanligini guvohi bo'lamiz. Chor Rossiyasi Turkistonni bosib olgan bir vaqtda ruslar hukumronligi ustun bo'lib musulmonlar o'z dinida tahlikada turgan bir vaqtda behbudiy hazratlari o'zlarini maqolalariga diniy qarashlarni kiritishlari bu chinakam musulmonning ,mard insonning ishidir. Shu o'rinda payg'ambarimiz Muhammad Sollollohu alayhi vasallamning kuchli mo'min kuchsiz mo'mindan yaxshiroqdir degan hadislarini eslasak. Kuchli mo'min o'z diniga sadoqat bilan to'g'ri yo'ldan og'ushmay ojiz bo'lmagan holda diniga xizmat qiladi. Ijtimoiy hayotimizda sodir bo'layotgan ishlarni barchasida dinimizning o'rni beqiyos. Musulmon inson nafaqat ibodatlarida balki, insoniylik amallarida ham o'z diniga xizmat qilib sodiq bo'lishi zarur. Behbudiy hazratlari ham davr ijtimoiy hayotidan kelib chiqib dinimizni sofliğini ushlab qolishga harakat qilgan olimlardandir. Alloh taolo u zotning qabrlarini jannat bog'chalaridan qilsin, qilgan ishlari va yozgan asarlari insoniyatga manfaatli bo'lishini va amal daftarlari qiyomatga qadar yopilmasligini Alloh taolodan so'rab duo qilamiz. Amiyn!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Aqidoid ilmi va unga bog'liq masalalar. – Toshkent: Hilol nashr, 2019. – B.7.
2. Mahmudxo'ja Behbudiy. Oyna,1914. 12-son. – 295-bet.
3. Mahmudxo'ja Behbudiy. "Oyna",1914. 12-son. – 295-bet.
4. O'MI fatvo markazi. Fiqh va aqidaga oid ixtilofli masalalar yechimi. – Toshkent: Matbaachi,2024. - B.360.
5. Mahmudxo'ja Behbudiy. Oyna,1914. 12-son. – 295-bet.
6. Mahmudxo'ja Behbudiy.Oyna, 1914. 14son. – B.200-202.
7. Mahmudxo'ja Behbudiy.Oyna, 1914. 13-son. – B.200-202

8. O'MI fatvo markazi. Fiqh va aqidaga oid ixtilofli masalalar yechimi. – Toshkent: Matbaachi, 2024. – B.360
9. Kofir iymonning 7ta rukniga ishonmaydigan yoki o'sha yettita rukundan birini inkor etgan kimsa.
10. O'MI fatvo markazi. Fiqh va aqidaga oid ixtilofli masalalar yechimi. – Toshkent: Matbaachi, 2024. – B.360.
11. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Tafsiru hilol. – Toshkent: Movarounnahr, 2008. – B.600-601.
12. Xavorijlar ajralib chiqqanlar. O'zlaridan boshqani musulmon demay kofirga chiqaruvchi guruh.
13. O'MI fatvo markazi. Fiqh va aqidaga oid ixtilofli masalalar yechimi. – Toshkent: Matbaachi, 2024. – B.360
14. Mahmudxo'ja Behbudiy. "Oyna", 1914, 20-son.
15. Hasan sahih hadis. 4331. Sunan Abu Dovud. Oltin Silsila. – Toshkent: Hilol, 2024. – 89-b.
16. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Hadis va hayot 16-17-juz. – Toshkent: Hilol, 2021. – B.215-216.
17. Uzun yengil oldi ochiq chopon.
18. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Hadis va hayot 16-17-juz. – Toshkent: Hilol, 2021. – B.215-216
19. Ilk yaratilgan odam va nabiyy payg'ambar.
20. Nuh alayhissalom Qur'oni karimda zikr qilinga 25 azim payg'ambarlardan biri. U kishining asl ismi Anush. Boshqa dinlarda Noyga to'g'ri keladi. Nuh ismining ibroniycha ma'nosi Abdulloh yana bir ma'nosi ko'p yig'lovchi. Qavmidan ko'p aziyat yetgani uchun Allohga ko'p yig'lab duo qilgan
21. Ibrohim alayhissalom ka'bani ilk bor qurgan, Qur'onda zikri kelgan azim payg'ambarlardan.
22. Muhammad sollallohu alayhi vasallam eng oxirgi to qiyomatga qadar barcha insoniyat uchun rosul qilib yuborilgan azim payg'ambarlardan.
23. Mahmudxo'ja Behbudiy. Turkiston viloyatining gazetisi. – Toshkent, 1903-yil. 15-iyul. 27-son.
24. Qur'oni Karim. Hud. 46-oyat. – Toshkent: Hilol, 2024. – B. 221-235
25. Qur'on. Moida" surasi 5-oyat. – Toshkent: Hilol, 2024. – B. 17.
26. Mahmudxo'ja Behbudiy. "Oyna". 1915-yil. 10-son.
27. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Tafsiru Hilol. "Hilol nashr". 2019. B.18.
28. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Tafsiru Hilol. "Hilol nashr". 2019. B.19.
29. Norqulov N., Rabbimov K. Oyna. Maqolalar. – Toshkent: Akademiya, 2001. – B.35.
30. Mahmudxo'ja Behbudiy. Oyna, 1913-yil, 1-son. – 324bet.
31. Mahmudxo'ja Behbudiy. Oyna. 1914, 13-son. – 211-bet.
32. Alloh taolo o'zining rosullariga yuborgan xabarlar.
33. Mahmudxo'ja Behbudiy. Oyna, 1915-yil. 8-son.
34. Yer yuzidagi musulmonlarni yagona boshqaruvchisi.
35. Arab diyorlaridagi o'lka nomi.

36. Mahmudxo'ja Behbudiy. Tanlangan asarlar 2-jild .
Toshkent:Akademnashr,2018. – B.47-48.
37. Hozirgi Ispaniyaning musulmonlar iste'lo qilgan davrdagi nomi.
38. Mahmudxo'ja Behbudiy. Tanlangan asarlar 2-jild.
Toshkent:Akademnashr,2018. – B.50-51.
39. Norqulov N., Rabbimov K.Oyna. – Toshkent:Akademiya,2001. – B.50.
40. Shari'atga kiritilgan yangiliklar.